

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**MASHARIPOVA LENINZA AXMEDJANOVNA**

**MADANIYATLARARO MULOQOTDA TIL VA UNING  
ANTROPOTSENTRIK MOHIYATI**

**(O‘zbekiston va AQSh nikoh to‘yi marosimlari va bayramlaridagi  
tabrik nutqiy akti misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik  
va tarjimashunoslik**

**FILOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии  
(PhD) по филологическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy  
(PhD) on philological sciences**

**Masharipova Leninza Axmedjanovna**

Madaniyatlararo muloqotda til va uning antropotsentrik mohiyati (O‘zbekiston va AQSh nikoh to‘yi marosimlari va bayramlaridagi tabrik nutqiy akti misolida).....3

**Машарипова Ленинза Ахмеджановна**

Язык в межкультурной коммуникации и его антропоцентрическая сущность (на примере поздравительных речевых актов на свадебных церемониях и праздниках Узбекистана и США).....27

**Masharipova Leninza Axmedjanovna**

Language and Its Anthropocentric Nature in Intercultural Communication (in the Instance of the Speech Act of Congratulation During Wedding Ceremonies and Holidays in Uzbekistan and the USA).....53

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works .....58

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**O‘ZBEKISTON DAVLAT JAHON TILLARI UNIVERSITETI**

**MASHARIPOVA LENINZA AXMEDJANOVNA**

**MADANIYATLARARO MULOQOTDA TIL VA UNING  
ANTROPOTSENTRIK MOHIYATI**

**(O‘zbekiston va AQSh nikoh to‘yi marosimlari va bayramlaridagi  
tabrik nutqiy akti misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va  
tarjimashunoslik**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi  
AVTOREFERATI**

**Toshkent – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.2.PhD/Fil3524 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus va ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida ([www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:** **Iriskulov Muxamadavas Tursunovich**  
filologiya fanlari nomzodi, professor.

**Rasmiy opponentlar:** **Xayrullayev Xurshidjon Zayniyevich**  
filologiya fanlari doktori, professor

**Agzamova Dildora Baxadirjanovna**  
filologiya fanlari nomzodi, dotsent

**Yetakchi tashkilot:** **Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti huzuridagi DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni soat \_\_\_\_\_ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92, e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru))

Dissertatsiya bilan O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100138, Toshkent shahri, Uchtepa tumani, Kichik halqa yo‘li ko‘chasi, 21-A uy. Tel.: (99871) 230-12-91, faks: (99871) 230-12-92)

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ kuni tarqatildi.  
(2025-yil «\_\_\_» \_\_\_\_\_ dagi \_\_\_\_\_ raqamli reyestr bayonnomasi).

**I.M. Tuxtasinov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
raisi, ped. f.d., professor

**X.B. Samigova**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
ilmiy kotibi, filol.f.d., professor

**J.A. Yakubov**  
Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash  
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, filol.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati.** Jahon tilshunosligining bugungi globallashtirilgan xalqaro hamjamiyat rivojlanish bosqichida madaniyatlararo muloqotda til va uning xususiyatlari, lingvomadaniy birliklar lugʻatini tuzish, uning ijtimoiy xususiyatlari muammosi tilshunos olimlar oʻrtasida qizgʻin bahs-munozaralarga sabab boʻlmoqda. Til va madaniyat munosabatlarini oʻrganish, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika tadqiqini amalga oshirish zamonaviy tilshunoslikning keyingi taraqqiyoti uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, barcha sohalarida olib borilayotgan va endi olib boriladigan ilmiy-tadqiqotlar jarayoni til vositalari yordamida yosh avlodga yetkazib berish orqali amalga oshiriladi. Bu esa fan oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Dunyo tilshunosligida bugungi globallashtirilgan xalqaro hamjamiyatda chet tillardan mutaxassis tayyorlash, “madaniyatlararo muloqot” masalasiga jiddiy eʼtibor berilmoqda. Buning sababi – millat madaniyati, urf-odatlarini, qadriyatlarini, turmush tarzi mazkur millat tomonidan asrlar davomida qoʻlga kiritilgan turli hayotiy jarayonlarda qayta-qayta sinovdan oʻtgan va millat tomonidan qabul qilingan hamda ularga kundalik hayotiy jarayonlarda amal qilinayotganligidir. Madaniyatlararo muloqotda til va uning antropotsentrik tahlili anchadan beri oʻrganilib, baʼzi muammolar oʻz yechimini topgan boʻlsa, baʼzilari esa hanuz muammoligicha qolmoqda. Oʻzbek va AQSh madaniyatlaridagi nikoh toʻyi marosimlari va bayramlaridagi tabrik nutqiy aktining tahliliga doir tadqiqotlar ushbu xalqlarning milliy til xususiyatlarini, ularga xos universal jihatlarini ochib berishga xizmat qilishini hisobga olsak, ushbu tadqiqotning ham dolzarbligi namoyon boʻladi.

Milliy yuksalishning muhim shartlaridan biri davlat tilini rivojlantirish, uni boshqa tillarga chogʻishtirib oʻrganish hamda oʻzbek tilining oʻziga xos xususiyatlarini koʻrsatib berishdan iborat. Shu munosabat bilan respublikamizda antropotsentrizm, pragmalingvistika sohalarida ham keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti “Oʻzbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda oʻrganish va targʻib qilishning dolzarb masalalari” mavzusidagi xalqaro konferensiya ishtirokchilariga yoʻllagan tabrigida: “Biz Oʻzbekistonda “Adabiy doʻstlik – abadiy doʻstlik” degan chuqur maʼnoli tamoyilga amal qilgan holda, jahon adabiyotining durdona asarlarini oʻzbek tiliga tarjima qilish va nashr etish masalasiga gʻoyat jiddiy eʼtibor qaratmoqdamiz”<sup>1</sup>, – deya taʼkidlagan edi. Bugungi xalqaro hamjamiyatda ingliz tili yetakchi xalqaro til vazifasini oʻtayotgan ekan, ushbu tilda soʻzlovchi har bir inson nafaqat oʻz tili, turmush tarzi, qadriyatlarini va madaniyatini, balki kim bilan, qaysi millat vakili bilan muloqot yuritayotganini hisobga olib, oʻz fikr-mulohazalarini hamsuhbatiga xos boʻlgan urf-odatlarga, agar ulardan bexabar boʻlsa, xalqaro hamjamiyatda amal qilinayotgan

---

<sup>1</sup> Ш.Мирзиёвнинг “Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари” мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табриги. 2018 йил 7 август [//https://president.uz/uz/lists/view/1926](https://president.uz/uz/lists/view/1926).

muloqot normalariga tayanib, suhbatdoshiga tushunarli ravishda yetkazishi asosiy talablardan biridir.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022–2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi PQ-3775-son “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi, 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi.** Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I.“Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** XXI asr ilmiy-tadqiqotlarida inson omilining ustun qo‘yilishi, tilshunoslik sohalari, jumladan, lingvomadaniyatshunoslik va pragmalingsvistikaga oid izlanishlarning samaradorligi hamda ularning nazariy asoslarini yaratishda antropotsentrik paradigma, milliy-madaniy belgili til birliklari va ularning xususiyatlari haqidagi muhim ilmiy-nazariy qarashlar rivoj topmoqda.

Jahon tilshunosligida til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlik masalalari ilmiy jihatdan A.A. Potebnya, G.G. Slisshkin, N. Alefirenko, V.A. Maslova, V.A. Zvegintsev, B. Piterson, A. Kroeber, C. Kluckhohn, N. Chomsky, E. Sapir, B.L. Whorf<sup>2</sup> kabi tilshunoslar tomonidan atroflicha o‘rganilgan.

Mamlakatimizda D. Ashurova, Sh. Safarov, M.T. Iriskulov, Sh. Usmanova, N. Mahmudov, D. Xudoyberganova, O‘. Yusupov, A. Mamatov, M. Hakimov va boshqa olimlar<sup>3</sup> ushbu soha taraqqiyotiga salmoqli hissa qo‘shib kelmoqdalar. Biroq

<sup>2</sup> Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. – М., 2000 (2007); Slisshkin G.G. *The Linguistic-Cultural Conceptology as a Trend of Contemporary Russian Linguistics*. – 2016.; Alefirenko N. Linguocultural nature of mentality. Язык. Словесность. Культура, 2011.

Маслова В. Лингвокультурология: учебное пособие. – М., 2001.; Звезгинцев В.А. Очерки по общему языкознанию. – М., 1962. – С.178- 179.; Peterson B. Cultural Intelligence. – Intercultural Press, 2004. – P.16.; Kroeber A., Kluckhohn C. Culture. A Critical Review of Concepts and Definitions, 1952. – P.25.

Chomsky N. Syntactic Structures. – 1957. – P.26.; Sapir E. Mandelbaum David (ed.). Selected writings in language, culture and personality. – University of California Press, 2001. – Pp.85-104.; Benjamin L.W. Language, Thought, and Reality, 1956. – P.89.

<sup>3</sup> Ашурова Д. У. Отражение национально-культурной картины мира в художественном переводе //Языковая картина мира в зеркале перевода//Сборник научных трудов/Отв. ред. ОО Борискина.—Воронеж, Издательский дом ВГУ, 2019. – С. 23-28.; Сафаров Ш.С. Таржимашуносликнинг когнитив асослари. Монография. – Тошкент: Наврўз, 2019. – Б. 57.; Pragmalingsvistika: monografiya. – Toshkent, 2008. – В. 77.; Iriskulov M.T. Zamonaviy globallashuv jarayonida millat tili va madaniyatining o‘rni. 2020 yil – ilm, ma’rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili / 2020 год – развития науки, просвещения и цифровой экономики.; Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Universitet, 2014.; Усмонова Ш. Таржиманинг лингвомаданий аспектлари. – Тошкент: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2015. –Б.192.;

O‘zbekiston va AQShning nikoh to‘yi va bayramlaridagi tabrik nutqiy akti maxsus monografik tadqiq qilinmagan.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejaları bilan bog‘liqligi.** Mazkur tadqiqot Urganch davlat universitetining “Ingliz tilini o‘rganishda qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslikning o‘rni” mavzusidagi ilmiy yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** O‘zbekiston va AQSh madaniyatlarining nikoh to‘yi va bayramlaridagi tabrik nutqiy aktining antropotsentrik mohiyatini ochib berishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston va AQShning nikoh to‘yi va bayramlaridagi tabrik nutqiy aktlari orqali madaniyatlararo muloqotda tilning antropotsentrik mohiyatini o‘rganish va mazkur madaniyatlardagi tabrik nutqiy aktlarining ekspressiv-emosivlik xususiyatlarini asoslash;

tabrik nutqiy aktining semantik-struktur xususiyatlari va pragmatik xususiyatlarini, ikki madaniyatning madaniy konteksti nuqtayi nazaridan taqqoslash;

O‘zbekiston va AQSh madaniyatlaridagi tabrik nutqiy aktlarida milliy-madaniy kodning aks ettirilish usullarini o‘rganish va ikki millat mentaliteti asosida dalillash;

tabrik nutqiy aktining kommunikativ intensiya va konnotativ xususiyatlarini aniqlash.

**Tadqiqotning obykti** sifatida O‘zbekiston va AQSh madaniyatlaridagi nikoh to‘y va bayramlarda aytiladigan tabrikni ifodalovchi nutq birliklari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** ikki millat madaniyatining nikoh to‘yi va bayramlaridagi tabrik nutqiy aktining antropotsentrik mohiyati tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Tadqiqot jarayonida lingvomadaniy, semantik-sintaktik, lingvopragmatik va qiyosiy-chog‘ishtirma tahlil usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

har ikki tilda tabriklash marosimi milliy urf-odat, qadriyatlar, til va madaniyat birligi negizida pragmatik ma’no va kommunikativ niyatga ko‘ra universal xususiyatlar, xususan, o‘zbek madaniyatiga madaniy kod, nutqiy vaziyat va kontekst, frazeologik birliklar va metaforalar hamda amerika madaniyatiga individualizm va shaxsiy erkinlik, ochiq va to‘g‘ridan-to‘g‘ri muloqot, xushmuomalalik va hurmat kabi jihatlar xos ekanligi aniqlangan;

---

Mahmudov N., Xudoyberganova D. O‘zbek tili o‘xshatishlarining izohli lug‘ati. –Toshkent: Ma’naviyat, 2013.; Xudoyberganova D. Matnning antropotsentrik tadqiqi. – Toshkent: Fan, 2013.; Юсупов Ў.К. Теоретические основы сопоставительной лингвистики. – Тошкент: Фан, 2007.– 66-67 с.; Mamatov A. Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada? // O‘zbek tilshunosligining dolzarb muammolari (prof. A.Nurmonov tavalludining 70 yilligiga bag‘ishlab o‘tkazilgan ilmiy-amaliy anjuman materiallari). – Andijon, 2012.; Mirtojiev M., Mahmudov N. Til va madaniyat. – Toshkent: O‘zbekiston, 1992. – 110 b.; Хакимов М. Ўзбек тилида матнинг прагматик талкини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2004. – 283 б.;

O‘zbekiston va AQSh madaniyatlarida tabrik nutqiy aktlarining semantik-struktur xususiyatlarining tadqiqi asosida ikki madaniyatning vaqt va makon kontekstida lingvostilistik hamda lingvopoetik xususiyatlar mavjudligi aniqlangan;

tabrik nutqiy aktining aks etishida har ikkala noqardosh madaniyatlarda o‘ziga xos urf-odat va marosimlari asosida madaniy kodning lisoniy, madaniy, ma’naviy va diniy jihatlarining shakllanishi isbotlangan;

tabrik nutqiy aktining pragmatik tadqiqida, jumladan, kommunikativ intensiya va konnotativ xususiyatlarini tahlil qilishda tabriklarning auditoriyaga maqsadli ta’sir ko‘rsatishi lingvopragmatik usul orqali dalillangan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

O‘zbekiston va AQSh madaniyatiga doir so‘zlarning izohini berishga asoslangan “Madaniyatshunoslikka oid o‘zbekcha-inglizcha so‘zlarning izohli lug‘ati” nashr etilgan. Mazkur lug‘at o‘zbek va amerika madaniyatlariga doir so‘zlar izohi bilan madaniyatlarni muloqotni rivojlantirishga xizmat qilishi aniqlangan;

lingvomadaniy birliklar millat tafakkur tarzi va ko‘lamini o‘rganishda muhim manba ekanligi, olamning lisoniy manzarasi shakllanishida, shuningdek, har bir millat obrazli tafakkurida to‘y va bayramlar nutqining o‘rni beqiyos ekanligining amaliy ahamiyati yoritilgan;

o‘zbek va ingliz lingvomadaniyatida olam va odam munosabatlari aks etishining antropotsentrik qiyosi masalasi, shuningdek, to‘y marosimlari va bayram nutqlari kontekstini shakllantiruvchi asosiy omillar, o‘z madaniyatini aks ettiruvchi nutq va aytimlardagi o‘xshash hamda farqli tomonlari masalalariga oydinlik kiritishga xizmat qilishi bilan dalillangan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** muammoning aniq qo‘yilganligi, tadqiqotda qo‘llanilgan usullarning zamonaviy lingvistik nazariyalarga mosligi, ilmiy-metodologik yondashuv va usullar, nazariy ma’lumotlarning ilmiy, ilmiy-ommabop, badiiy, publitsistik manbalardan olingani, keltirilgan tahlillar lingvomadaniy, semantik-sintaktik, lingvopragmatik va qiyosiy-chog‘ishtirma metodlar vositasida asoslanganligi, nazariy xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishning xulosalari va ilmiy umumlashmalari madaniyatlarni muloqotda tilning antropotsentrik mohiyatini ochish, tabrik nutqiy aktini semantik-struktur va pragmatik xususiyatlarini o‘rganishdagi ilmiy qarashlarni nazariy jihatdan boyitish, shuningdek, ishda bayon qilingan xulosalar hamda erishilgan natijalar boshqa tillar lingvokulturemalarini ham ayni shu yo‘nalishda qiyosiy-chog‘ishtirma aspektida o‘rganishda namuna bo‘lishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati chog‘ishtirilayotgan tillardan to‘plangan va tahlil qilingan materiallar shu sohaga doir lug‘atlarni tuzish va mukammallashtirishda hamda oliy o‘quv yurti filologiya yo‘nalishi, ayniqsa, chet tillari bo‘limi o‘quv rejasidagi lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika,



qiyosiy tilshunoslik fanlaridan ma'ruza, seminar mashg'ulotlari hamda maxsus kurslarni tashkil qilish va ularga oid o'quv adabiyotlarini takomillashtirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi:** O'zbekiston va AQShning nikoh to'yi marosimlari va bayramlaridagi tabrik nutqiy akti misolida madaniyatlararo muloqotda tilning antropotsentrik mohiyati bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

har ikki tilda tabriklash marosimi milliy urf-odat, qadriyatlar, til va madaniyat birligi negizida pragmatik ma'no va kommunikativ niyatga ko'ra universal xususiyatlar, xususan, o'zbek madaniyatiga madaniy kod, nutqiy vaziyat va kontekst, frazeologik birliklar va metaforalar hamda amerika madaniyatiga individualizm va shaxsiy erkinlik, ochiq va to'g'ridan-to'g'ri muloqot, xushmuomalalik va hurmat kabi jihatlar xos ekanligining aniqlangani xususidagi ilmiy-nazariy ma'lumotlardan M.T. Iriskulov, L.A. Masharipovalarning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan "ESP: Teaching English for Tourism", 2021-yil 23-noyabrda 500-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan "Education and sport", Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martda 68-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan "Uzbek culture for pre- and in-service teacher training courses" darsliklarida foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-sonli buyrug'i asosidagi 676-235 raqamli, 2021-yil 23-noyabrda 500-sonli buyrug'i asosidagi 500-238 raqamli, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 27-martda 68-sonli buyrug'i asosidagi 68-187 raqamli nashr ruxsatnomalari; Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2020-yil 28-dekabrda 676-235-son, 2023-yil 27-martda 68-187-son ma'lumotnomalari). Natijada o'quv adabiyotlarining yangi avlodini chop qilish va oliy ta'lim muassasalari uchun tavsiya qilingan o'quv adabiyotlarining madaniyatga oid nazariy ma'lumotlar bilan boyitilishi ta'minlangan.

O'zbekiston va AQSh madaniyatlarida tabrik nutqiy aktlarining semantik-struktur xususiyatlarining tadqiqi asosida ikki madaniyatning vaqt va makon kontekstida lingvostilistik hamda lingvopoetik xususiyatlar mavjudligi aniqlangani borasidagi xulosalardan Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrda 388-sonli buyrug'iga asosan nashrga tavsiya etilgan "Boost your English through activities" o'quv-qo'llanmasi hamda L.A. Masharipova va N.M. Radjapovalar hammuallifligidagi "Madaniyatshunoslikka oid inglizcha-o'zbekcha so'zlarning izohli lug'ati"da foydalanilgan (Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2022-yil 25-noyabrda 388-sonli buyrug'i asosidagi 388-96 raqamli nashr ruxsatnomasi, Urganch davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2023-yil 19-aprelda 4-son yig'ilishi bayonnomasi). Natijada mazkur o'quv-qo'llanma hamda lug'at o'zbek va AQSh madaniyatlariga doir so'zlarning nazariy tahlili va izohi orqali madaniyatlara muloqotni rivojlantirishga xizmat qilgan;

tabrik nutqiy aktining aks etishida har ikkala noqardosh madaniyatlarda o'ziga xos urf-odat va marosimlari asosida madaniy kodning lisoniy, madaniy, ma'naviy

va diniy jihatlarining shakllanishi isbotlanganiga oid xulosalardan Xorazm Ma'mun akademiyasidagi ilmiy-ijodiy tadbirlar va dasturlarni tayyorlashda va Xiva "Ichan Qal'a" davlat muzey-qo'riqxonasida gid-yo'l boshlovchilar yurtimizga tashrif buyurgan mehmonlarga vohamizning noyob durdonalarini tanitishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Xorazm Ma'mun akademiyasining 2023-yil 1-dekabrda 193/2-23-son, O'zbekiston Respublikasi madaniy meros agentligi Ichan-Qal'a davlat muzey qo'riqxonasining 2023-yil 4-dekabrda 01-02/766-son ma'lumotnomalari). Natijada mamlakatimizda til o'rganishga bo'lgan ishtiyoq, milliy o'zligimizni anglash, ma'naviy-madaniy qadriyatlarimizni, urf-odatlarimizni saqlab qolishga bo'lgan harakatlarni amalga oshirishda imkon bergan hamda muzey-qo'riqxonada saqlanayotgan noyob manbalar yangi ma'lumotlar bilan boyitilgan;

tabrik nutqiy aktining pragmatik tadqiqida, jumladan, kommunikativ intensiya va konnotativ xususiyatlarini tahlil qilishda tabriklarning auditoriyaga maqsadli ta'sir ko'rsatishi lingvopragmatik usul orqali dalillangan borasidagi taklif va tavsiyalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining "Mahalla" telekanali ko'rsatuvlarini, Xorazm viloyat teleradiokompaniyasining "Assalom, Xorazm" dasturining "Suhbatdosh" ruknidagi eshittirishlarning ssenariysini tayyorlashda hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasida yoshlarga milliy o'zligimizni, ya'ni o'z ona tilimiz va madaniyatimizni anglatishdagi harakatlarda samarali foydalanilgan (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi "Mahalla" teleradiokanali" davlat muassasasining 2023-yil 20-noyabrda 02-14-1163-son, Xorazm viloyati teleradiokompaniyasining 2023-yil 22-noyabrda 767-son, O'zbekiston Respublikasi yoshlar siyosati va sport vazirligi huzuridagi Yoshlar ishlari agentligining Xorazm viloyati yoshlar ishlari boshqarmasining 2023-yil 24-noyabrda 02-10/482-son ma'lumotnomalari). Natijada o'zbek lingvomadaniyatining o'ziga xos xususiyatlari, ayniqsa, "kelin salom" va "yor-yor" aytish an'analari, undagi qadriyatlarni yorituvchi teleko'rsatuvlar yangi materiallar, ilmiy asoslangan dalillar bilan boyitilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 23 ta ilmiy ish nashr etilgan, shulardan, 1 ta lug'at, 3 ta darslik, 1 ta o'quv-qo'llanma, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 10 ta ilmiy maqola, 2 tasi xalqaro, 8 ta mahalliy ilmiy jurnallarda e'lon qilingan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 153 sahifadan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad hamda vazifalari, obyekt va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yoʻnalishlariga mosligi koʻrsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi boʻyicha maʼlumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Madaniyatlararo muloqotda tilning antropotsentrik mohiyatiga doir nazariy masalalar”** nomli birinchi bobida antropotsentrik tilshunoslikning nazariy masalalari, nutqiy akt turlari: tabrik nutqiy aktining mohiyati, zamonaviy lingvomadaniyatshunoslikda madaniyat tushunchasi va unga doir yondashuvlar haqida maʼlumotlar berilgan.

Til va inson bogʻliqligi tilshunoslikda yangi tuzilma – antropotsentrik paradigmaning<sup>4</sup> aktuallashtirishiga olib keldi. Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalardan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi.<sup>5</sup>

Tilshunoslikda antropotsentrik tilshunoslik (yoki antropotsentrik paradigma; neolingvistika) sohasining shakllanishi til sohibi – soʻzlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bogʻliq. “Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi shu bilan izohlanadiki, tadqiqotchilarning diqqati “til qanday qurilgan” degan muammodan “til qay tarzda amal qiladi” degan masalaga koʻchdi. Tilning qay tarzda amal qilishini tadqiq etish uchun esa tilni uning egasi boʻlgan shaxs omili nuqtayi nazaridan koʻrib chiqish kerak boʻladi. Ayrim tilshunoslarning fikricha, antropotsentrik paradigma oʻtgan asrda strukturalizm muvaffaqiyatlari natijasi sifatida yuzaga kelgan “oʻzida va oʻzi uchun” tamoyilini butunlay chetga surib qoʻydi”<sup>6</sup>. Bunda asosiy eʼtibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, yaʼni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til egasiga qaratildi.

Ilmiy paradigmaga “til egasi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda, shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashuvini taqozo etadi<sup>7</sup>.

V.A. Maslova antropotsentrik paradigma tadqiqotchining obyektini subyekt orqali anglashga, yaʼni insonning tilga, tilni insonga munosabati asosida anglashga boʻlgan qiziqish natijasida vujudga kelganini qayd etadi. Olimaning fikricha, kognitiv lingvistika lingvokulturologiya va antropotsentrizm gʻoyalari asosida shakllangan boʻlib, kognitiv tilshunoslik – inson aqli orqali informatsiyalarni ishlab chiqish va uni bilish orqali til shakllarida

<sup>4</sup> Abduraximova F. K. Antroposentrik paradigma va lisoniy shaxs tushunchasi. <https://doi.org/10.5281/zenodo.1025974>

<sup>5</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўлларини излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8

<sup>6</sup> Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: Становление антропологической парадигмы в языкознании // Филологические науки, 2001. – №1. – С. 64.

<sup>7</sup> Седов К.Ф. Дискурс и личность. – С. 5.

namoyon etishga tayanadigan inson faoliyati haqidagi fandır. Lingvokulturologiya esa tilni madaniyat fenomeni sifatida o‘rganuvchi fandır. V. Maslovaga ko‘ra, antropotsentrik paradigma nuqtayi nazardan inson dunyoni o‘zini anglash asosida biladi. Antropotsentrik paradigmanning vujudga kelishi lingvistik masalalarni inson va uning madaniyatdagi o‘rniga burishga olib keldi.<sup>8</sup>

Y.I. Zinovevaning ta’kidlashicha, antropotsentrik paradigmanning muhim tomoni til, tafakkur va madaniyatning o‘zaro aloqada va bir-biriga bog‘liq holda o‘rganish masalalasining qo‘yilishidir.<sup>9</sup> Biz ham shu fikrga qo‘shilgan holda, ilmiy ishimizda ma’lumotlar berib o‘tganmiz.

Tilshunoslikda e’tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e’tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya’ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi<sup>10</sup>. Aytish joizki, ilmiy paradigmaga “til sohibi” kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalar tadqiqining faollashuvini taqozo etadi<sup>11</sup>.

Ma’lumki, nutqiy aktlar nazariyasining shakllanishi, ya’ni muloqot jarayonida muayyan maqsadga yo‘naltirilgan lisoniy faoliyatning bajarilishi bilan bog‘liq muammolar tadqiqi asosan nutq va til hodisalarining qiyoslanishi orqali amalga oshiriladi. Nutqiy aktlar nazariyasining ta’limot sifatida shakllanishi o‘tgan asrning ikkinchi yarmiga to‘g‘ri keladi. XX asrning 60-70-yillarida Oksford maktabi namoyandalari kundalik turmushda tilning odatdagi qo‘llanilishini o‘rgana boshladilar. Ushbu tadqiqotchilarning fikricha, tabiiy tilning asosiy maqsadi – shaxslararo muloqotni yo‘lga qo‘yish hisoblanadi va biz ham bu fikrga qo‘shilamiz. Umuman, tilshunoslik sohasida olib boriladigan tadqiqotlarda inson va uning kommunikativ maqsadi, muloqot samaradorligini ta’minlovchi muhit shartlari markaziy nuqta sifatida gavdalanadi. Oksford maktabi konsepsiyasiga tayanadigan bo‘lsak, unda obyektiv dunyoni, avvalo, kommunikativ vaziyatni yaratadigan, so‘zlovchining maqsadi va vazifasini belgilaydigan omil sifatida tadqiq etish taklif qilinadi. XX asr boshlarida hukmronlik qilgan struktural paradigma asta-sekinlik bilan asosiy o‘rganish obyekti nutqning shaxsga nisbatan munosabati bo‘lgan antropotsentrik konsepsiyalar tomonidan siqib chiqarildi. Shu tarzda tilshunoslikning yangi sohasi pragmalogvistik yoki pragmatika vujudga keldi<sup>12</sup>.

Tilning nutqqa ko‘chirilishi kommunikativ jarayonda o‘z ifodasini topar ekan, mazkur holatni tahlil qilishda, bizningcha, pragmatik aktlardan bemalol foydalanish mumkin<sup>13</sup>. Buning boisi shundaki, Jon Ostin nutqiy akti uch sath doirasida tadqiq qilish mumkinligini ko‘rsatib berib, ularni quyidagicha nomlagan edi: *lokutiv akt sathi, illokutiv akt sathi, perllokutiv akt sathi*.

<sup>8</sup> Маслова В.А. Лингвокультурология. –Москва, Издательский центр, Академия, 2001. – С. 3-4.

<sup>9</sup> Зиновьева Е.И. Лингвокультурология: от теории к практике. – Санкт Петербург, 2016. – С. 6-7.

<sup>10</sup> Воркачка С.Т. Лингвокультурология. дичность концент становление антропоцентрической парадигмы в выкознания / Филозотические науки Москва, 2001 №1 -С. 64

<sup>11</sup> Sedov K.F. Diskurs i lichnost M. Labirint, 2004- 8-11

<sup>12</sup> Shamaxmudova A.F. Bilvosita nutqiy aktlarni muloqot matnida voqelantiruvchi etnopragsmatik omillar (ispan tili misolida). Samarqand. – 2019. 16-bet.

<sup>13</sup> Yaqubov J.A., Rozmetov H.Q. Kommunikativ tilshunoslikda nutqiy akt turlarining leksik, semantik va sintaktik xususiyatlari. Ilm sarchashmalari. 2020/5. – 55-b.

Tadqiqot ishimiz aynan tabrik nutqiy aktining mohiyatiga qaratilganligi sababli ekspressiv nutqiy aktlarga alohida to'xtalib o'tish lozim topildi. Bugungi kunda nutqning ekspressivligi masalasini chuqur va atroflicha o'rganish tendensiyasi mavjud. Bu ekspressiv nutq aktlarining to'liq tavsifi yo'qligi va ularning shaxslararo muloqot jarayonida muhim ijtimoiy ahamiyatga egaligi bilan bog'liq. "Expresso" – lotin tilidagi "ifodalash" ma'nosini anglatib, Jon Rojers Serl nutqiy aktlarning bir guruhini ekspressivlar termini bilan nomlagan. Olimning ta'rifiga ko'ra, ekspressivlar maqsadli nutqiy faoliyatning bir turi bo'lib, ular adresat xatti-harakatiga nisbatan so'zlovchining muayyan psixologik holatini ifodalaydi<sup>14</sup>. Shuningdek, mazkur nutqiy akt turi ijtimoiy etiket qoidalarini ham o'z ichiga oladi.

Mazkur nutqiy akt turiga nisbatan tilshunoslar turli terminlar qo'llashadi. Jumladan, J. Ostin bunday nutqiy aktlar uchun "ekspozitiv"lar, K. Bax va R. Xarnishlar "aknolejment", D. Vunderlix – "satisfaktiv", A. Vejbitskaya, N.M. Vaxtel, M.Y. Fedosyuk – "emotiv"lar, T.T. Vasilyeva, N.N. Formanovskaya – "etiketlar", V.G. Gak – "emotsional-baho nutqiy akti", I.V. Trufanova "ekspressiv-emotsional nutqiy aktlar", N.A. Trofimova "ekspressivlar" deb atashni maqsadga muvofiq hisoblaydi. V.I. Karasik ularning perlokutiv natijalarini ham inobatga olgan holda emotsional-kauzativ nutqiy aktlar deb atashni taklif etadi. G.G. Pocheptsov esa ekspressivlar performativlar tarkibida o'rganilishi lozimligini, uni alohida guruh sifatida ajratishga ehtiyoj yo'qligini ta'kidlaydi<sup>15</sup>. L.A. Piotrovskaya emotiv ifodalar masalasini chuqur o'rganib, "emotsional" va "emotiv" hodisalarini farqlash lozimligini ta'kidlaydi. Olimaning fikricha, nutqiy aktning illokutiv maqsadi nutq subyekting ruhiy holatini ifodalash bo'lsa, "emotsional" ifodasi; nutq subyekting nimagadir yoki kimgadir emotiv munosabatini ifodalash bo'lsa, "emotiv nutqiy akt" terminini qo'llash joiz<sup>16</sup>.

J. Serl va uning izdoshlari: J. Lich, T. Ballmer, V. Brennenshtul, L.P. Chaxoyan, N.A. Trofimova, N.A. Komina va L. Pisarekning nazariy mulohazalariga tayanib, mazkur nutqiy akt guruhini ekspressivlar termini bilan atashni qo'llab-quvvatlaymiz, negaki ushbu termin ko'plab olimlar tomonidan tan olinishi bilan

---

<sup>14</sup> Haydarova D. Ekspressiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi. Oriental Renaissance: Innovative, (E)ISSN:2181-1784 educational, natural and social sciences. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.73(9), September, 2023.

<sup>15</sup> Остин Дж. Л. Слово как действие // Новое в зарубежной лингвистике. – М., 1986 – Вып. 17 – С. 22 – 129; Bach K. Linguistic Communication and Speech Acts / K. Bach and R.M. Harnish. – Cambridge: Mass, 1980 – 327 p.; Wunderlich D. Studien zur Sprechakttheorie. – Frankfurt a. M., 1976 – 417 p.; Вежбицка А. Речевые акты // Новое в зарубежной лингвистике. – Вып. 358//Лингвистическая прагматика. – М.: Прогресс, 1985 – С. 251-275; Федосюк М.Ю. Исследование средств речевого воздействия и теория жанров речи // Жанры речи. – Саратов, 1997 – С. 66-88.; Вахтель Н.М. Высказывание в позиции газетного заголовка: семантика и прагматика. – Воронеж: РИЦ ЕФ ВГУ, 2004 – 204 с.; Формановская Н.И. Эмоции, чувства, интенции, экспрессия в языковом и речевом выражении // Эмоции в языке и речи. Сб. науч. тр. – М.: РГГУ, 2005 – С. 106-116.; Гак В.Г. К проблеме сопоставительно-типологического анализа речевого акта и текста//Сопоставительная лингвистика и обучение неродному языку. – М.: Наука, 1987 – С. 37-48.; Труфанова И.В. Прагматика несобственно-прямой речи. – М., 2000 – 568 с.; [https://www.oriens.uz/media/journalarticles/32\\_Haydarova\\_Dilafroz\\_225-229.pdf](https://www.oriens.uz/media/journalarticles/32_Haydarova_Dilafroz_225-229.pdf); Карасик В.И. Язык социального статуса. – М., 1992. – 330 с.; Почепцов Г.Г. Прагматика предложения / И.П. Иванова, В.В. Бурлакова, Г.Г. Почепцов // Теоретическая грамматика современного английского языка. – М.: Наука, 1981 – С. 267-281. Почепцов Г.Г. Прагматика предложения / И.П. Иванова, В.В. Бурлакова, Г.Г. Почепцов // Теоретическая грамматика современного английского языка. – М.: Наука, 1981. – С. 267-281.

<sup>16</sup> Пиотровская Л.А. Взаимодействие эмоциональной и рациональной оценки в процессе порождения речи // Русский язык: исторические судьбы и современность: III Международный конгресс исследователей русского языка: Труды и материалы / сост. М. А. Ремнева, А. А. Поликарпов. – М.: МАКС Пресс, 2007. – С. 28–29.

birga, J. Serl tipologiyasi qat'iy mezonlarga asoslanadi, qisqa, qulay, mohiyatan bu til hodisasiga mos va o'zbek tilshunosligida avvaldan "ekspressivlik" shaklida uslubiyatda qo'llanilgan, til egalariga ma'lum termin sanaladi.

Shuningdek, ekspressivlar tarkibiga kiruvchi nutqiy akt turlari masalasi ham biroz bahstlab<sup>17</sup>. J. Serl ekspressivlarning ikki kichik guruhini farqlaydi: *birinchi guruh* tarkibiga so'zlovchining tinglovchiga ijobiy: minnatdorchilik, tabrik, tasdiqlash, iqror kabi munosabatini ifodalovchi nutqiy aktlar; *ikkinchi guruhga* tinglovchining ham, o'zining ham xatti-harakatiga salbiy munosabatni ifodalovchi kechirim, afsus, malomat qilish kabi nutqiy aktlarni kiritadi.

Shu ma'lumotlardan *tabrik* nutqiy akti ekspressivlarning birinchi guruhiga mansubligi ma'lum bo'ladi. Tabrik nutqiy aktida vaziyat ijtimoiy xarakter kasb etadi, tinglovchiga hurmat, u bilan aloqani saqlab qolish maqsadida oz samimiy hurmatini ifodalovchi leksik birliklarning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. Bundan tashqari tabriklarning alohida o'ziga xos xususiyatlari ularning qat'iy odat tusiga kirgan ifodalarga boyligi hisoblanadi. Masalan, kishilar o'rtasidagi tug'ilgan kun, milliy bayramlar, tarixiy sanalar bilan bog'liq tabriklarda asosan adresatning (nutq qaratilgan shaxsning) sog'ligi, ishi, oilasiga aloqador tilak, istak bildiruvchi so'zlar va jumlar ishlatiladi<sup>18</sup>. Ular hayotning maishiy tomonlarini qamraydi. Jamiyatda biror mavqega ega bo'lgan yirik allomalar, davlat arboblari bilan bog'liq tabriklar ma'no ko'lamining kengligiga ko'ra oddiy tabriklardan farq qilsa, davlatlar rahbarlari o'rtasidagi tabriklar esa siyosiy xarakterga ega bo'ladi. Shuning uchun ularda rasmiy uslubga xos nutqiy birliklar, siyosiy terminologiyalar yetakchilik qiladi.

Tabrik so'zlarining haqiqiy mohiyatini tushunish uchun uning ijtimoiy jihatlarini tahlil qilish kerak. Tabrik, so'zlovchi tomonidan adresatga ijobiy munosabat bildirish va tabrik aytish jarayonidagi his-tuyg'ularni ifodalashga xizmat qiladi. Tabiiyki, tabriklovchi va qabul qiluvchi o'rtasidagi muloqotning mavjudligi bu jarayonning asosiy shartidir. Agar ikki tomonning biri bo'lmasa, tabrik so'zlari aytilmaydi. Tabrikning maqsadi aloqani saqlab qolish, adresat bilan do'stona munosabatlarni mustahkamlash, shuningdek, so'zlovchining o'ziga tegishli his-tuyg'ularini ifodalashdir. Shuning uchun tabrik, muloqot ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro muloqotni tartibga soluvchi muhim omil hisoblanadi. Tabrikda yaxshi tilaklar, hurmat va e'tirof, maqtov va xushnudlik hissi aks ettiriladi. Ammo tabrikni har doim xushnudlik va maqtovga asoslash to'g'ri emas. Tabrikda asosiy maqsad – tinglovchiga chinakam xursandchilik va minnatdorchilikni bildirishdir.

Mazkur bobda madaniyat termini va unga doir yondashuvlar ham tahlilga tortildi. Ko'plab tilshunos olimlarning madaniyat haqidagi nazariy qarashlari izohlanib, quyidagi ta'rif yaratildi: *Madaniyat – insonlarning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, o'sha xalqning avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan urf-odatlar, tarixi, musiqa va san'at, qadriyatlar, turli udumlar, ma'naviyat va ma'rifat*

<sup>17</sup> Haydarova D. Ekspressiv nutqiy aktlar tadqiqi va tasnifi. Oriental Renaissance: Innovative, (E)ISSN:2181-1784 educational, natural and social sciences. [www.oriens.uz](http://www.oriens.uz). SJIF 2023 = 6.131 / ASI Factor = 1.7.3(9), September, 2023.

<sup>18</sup> Maratova N.L. Tabrik nutqiy aktining umumiy tavsifi // Международный научный журнал № 8 (100), часть 1 «Новости образования исследование в XXI веке», 2023.

*harakatlarini o'zida aks ettiruvchi jarayondir.* Tadqiqotda madaniyatning 11 ta yondashuv va tamoyili aniqlandi: *tavsifiy, antropologik, pragmatik, funksional, germenevtik, falsafiy, konseptual, kommunikativ, informativ, simvolik va tipologik.* “Madaniy nisbiylik” g‘oyasi esa e’tiqodlarning madaniyat kontekstida shakllanishi va eng yaxshi shu kontekstda tushunilishiga asoslanadi. Bu g‘oya antropologlar va ijtimoiy olimlar tomonidan boshqa madaniyatlarni o‘z madaniyatlari bilan solishtirganda, hukm qilishning tabiiy moyilligini tan olish va boshqa madaniyatlar haqidagi ma’lumotlarni to‘g‘ri to‘plash hamda tahlil qilish uchun ishlatiladigan nazariya va vosita hisoblanadi.

Dissertatsiyaning **“Madaniyatlararo muloqotda tabrik nutqiy aktining semantik-struktur xususiyatlari”** deb nomlangan ikkinchi bobida O‘zbekiston va AQSh lingvomadaniyatida tabrik nutqiy aktlarining qo‘llanish xususiyatlari, mazkur madaniyatlarda tilak nutqiy aktining semantik-sintaktik strukturasi va ikkala noqardosh madaniyatlardagi tabrik nutqiy aktlarida milliy-madaniy kodning namoyon bo‘lishi tahlil qilingan.

Ma’lumki, kishilar til vositasida o‘zaro aloqaga kirishar ekanlar, unda qo‘llanilgan til birliklari vositasida tilning munosabat ifodalash, ta’sir qilish kabi xususiyatlari namoyon bo‘ladi<sup>19</sup>. Ikkala noqardosh madaniyatda ham kishilar til birliklaridan foydalanish bilan turli ruhiy holatlarni, quvonch-u istaklari, orzu-umidlarini ifodalaydilar. Bu esa o‘z navbatida tilda ma’lum nutqiy ifodalarni – nutqiy aktlarni yuzaga keltiradi. Ana shunday nutqiy ifodalardan biri bo‘lgan tabrik nutqiy akti so‘zlovchining adresatga ijobiy munosabati, undan minnatdorligi ifodasi sifatida yuzaga keladi. Bu nutqiy akt o‘zining mohiyatini ifodalovchi bir qator vaziyatga bog‘liq holda yuzaga keluvchi ta’sirchanlik holatlariga ega: u so‘zlovchining his-tuyg‘ulari va munosabatini ifodalab, adresatda oxir-oqibatda ijobiy reaksiya<sup>20</sup> uyg‘otishga yo‘naltiriladi. Tabiiyki, tabrik jarayonida adresat va tabrik yo‘llovchi kommunikativ vaziyatning bo‘lishi shart bo‘lgan elementlari hisoblanadi. O‘zbekiston va AQSh lingvomadaniyatida tabrik ham muloqot jarayonida samimiylilik va hurmat muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bular ichida asosiylari illokutiv kuchning umumiyliigi (hissiyotni ifodalash) va adresatda ijobiy emotsional kayfiyat hosil qilish kommunikativ vazifani namoyon qiluvchi perllokutiv maqsad (javob emotsional reaksiyasiga erishish) hisoblanadi. Tabrik uchun asos sifatida quyidagilarni ko‘rsatish mumkin: Vaziyatlar – tabrik uchun madaniy an’analar asosida belgilanuvchi sababdir. Masalan, tabrik uchun sabablarni quyidagicha tasniflash mumkin:

1) tug‘ilgan kun kabi odat tusiga kirgan taomillar, milliy-ma’naviy qadriyatlarini ifodalovchi bayramlar. O‘zbekiston va AQSh bayramlarini o‘xshash va farqli bayramlarga bo‘lib o‘rganib, ularda aks etadigan konseptual birliklarni keltirib o‘tganmiz, ya’ni berilgan konseptual birliklar orqali qaysi so‘zlarni ishlatib tabriklash mumkinligi namoyon bo‘ladi; “1-jadvalga qarang”.

<sup>19</sup> Faxriddinova D.S. Tabrik nutqining o‘ziga xos xususiyatlari// Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784 4 (4), April, 2024 SJIF 2024 = 7.404 / ASI Factor = 1.7 www.oriens.uz

<sup>20</sup> <https://cyberleninka.ru/article/n/tabrik-nutqining-o-ziga-xos-xususiyatlari>

## Bayramlarda aks etgan konseptual tushunchalar

O'XSHASH BAYRAMLAR	
Yangi yil bayrami	xursandchilik, bir-biriga yaxshi tilaklar aytish, o'zaro bir-birini qutlash,
Xotirlash kuni	esga olish, xotirlash va ulug'lash
Mustaqillik kuni	mustaqil bo'lganini nishonlash, vatanni ulug'lash, o'zaro bir-biriga xursandchilik ulashish
FARQLI BAYRAMLAR, ya'ni o'zbek madaniyatida mavjud bayramlar	
Vatan himoyachilari kuni	mardlik, jasurlik, qo'riqlash, vatanni ulug'lash, asrash
Xotin-qizlar kuni	nazokatlilik, latofatlilik, ayolning go'zal, lekin ojiza xilqat ekanligi
Navro'z bayrami	qadriyatlarni ulug'lash, ozodalik, sarishtalik, mehmondo'stlik
O'qituvchi va murabbiylar kuni	hurmat-ehтиrom, sharaflilik, muqaddaslik
FARQLI BAYRAMLAR, ya'ni AQSh madaniyatida mavjud bayramlar	
Martin Lyuter King kuni	tinchlik, istiqbolli kelajak
Vashingtonning tug'ilgan kuni	tinchlik, istiqbolli kelajak, baxtli amerikaliklar
Mehnat kuni	mehnatkashlik
Kolumb kuni	mustaqil bo'la olishlik
Faxriylar kuni	qadr-qimmat va ulug'lash

2) adresatning maxsus yutuqlarga, muvaffaqiyatga erishganligi sababi. Masalan, sport, olimpiada kabilarda erishilgan yutuqlar;

3) adresatning to'g'ridan to'g'ri ishtirokisiz amalga oshgan baxtli voqealar.

Tabrik so'zlari aytishning o'ziyoq, so'zlovchining tinglovchi hayotiga qiziqishini ko'rsatuvchi muhim omil hisoblanadi. Chunki u tinglovchi hayotida sodir bo'layotgan voqeaga nisbatan qiziqish va hurmatni ifodalaydi. Agar tabrik aytilmasa, bu tinglovchi hayotida ro'y berayotgan hodisaga befarqlik yoki uning bilan birgalik hissining yo'qolishiga dalolat qilishi mumkin.

Tabrik nutqiy akti sintaktik parallelizm, emotsional gap, inversiya, gradatsiya, antiteza va o'xshatish kabi uslubiy figuralarda ifodalanishi aniqlandi. Zero, ekspressivlikning namoyon bo'lish shakllarini teran tadqiq qilgan tilshunos Adham Abdullayev "sintaktik gradatsiya, sintaktik sinonimiya, bog'lovchilarning maxsus qo'llanishi, antiteza, monolog, sukut, inversiya, takroriy gaplar, ritorik so'roq"<sup>21</sup> kabi uslubiy figuralar "fikrning o'ta ta'sirchan ifodalanishi"ga xizmat qilishini ta'kidlaydi.

**Sintaktik parallelizm.** Tabriklash jarayonida sintaktik jihatdan bir xil shakllangan gaplar ko'p qo'llaniladi. Tilshunoslikda bunday qurilmalar parallelizm atamasi ostida o'rganiladi. Parallelizm (yunoncha, paralelos – yonma-yon boruvchi) yonma-yon gaplar, sintagmalarning bir xil sintaktik qurilishga ega bo'lishidir<sup>22</sup>. Masalan, O'zbekiston madaniyatida "kelin salom"<sup>23</sup> marosimida kuyga solib aytiladigan she'rni bunga misol qilishimiz mumkin:

*Tog'u toshni yaratgan*

*Avval Xudoga salom*

*Salom, salom, kelin salom*

*Payg'ambarlarga salom...*

<sup>21</sup> Yo'ldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn Lingvistikasi: o'quv qo'llanma. – Toshkent: «Ishonchli Hamkor», 2021.

<sup>22</sup> [https://tsuull.uz/sites/default/files/saparniyozova\\_0.pdf](https://tsuull.uz/sites/default/files/saparniyozova_0.pdf)

<sup>23</sup> Safarov O. "Kelin o'tirsini" va "Kuyov o'tirsini" marosim qo'shiqlari// O'zbek tili va adabiyoti, 1989. – №5. – B.35-39.



Mazkur marosimda “Salom, salom, kelin salom” soʻzlari bir necha bor takrorlanib kelgan, bunda mantiqiy-milliy konseptual ketma-ketlikni uchratamiz, yaʼni diniy eʼtiqodi va oiladagi roliga qarab, ketma-ketlikda salom beriladi, oldin yoshi kattalarga va keyin yoshi kichikroqlarga taʼzim qilinadi. Bu qadriyatda yoshi kattalarga hurmat konsepti aks etgan. Bundan tashqari, toʻy payti aytiladigan “yor-yor” qoʻshigʻi ham bunga misol boʻla oladi:

*Hay-hay oʻlan, jon oʻlan, baxting boʻlsin yor-yor<sup>24</sup>,*

*Paygʻambarning qizidek taxting boʻlsin yor-yor...*

Yuqoridagi misralarda *yor-yor* soʻzi bir necha marta takrorlanib kelgan.

“Yor-yor” va “kelin salom” qiz uzatish paytida va toʻydan keyin aytiladigan sheʼriy ifodalardir. Oʻzbekiston madaniyatida toʻy kuni aytiladigan bir-biridan chiroyli nasriy ifodalar ham mavjud:

*Toʻy<sup>25</sup> kuni aytilgan tilaklar yaxshi. Munavvar qalbingiz quvonchga toʻlsin. Nikoh toʻyingiz muborak boʻlsin...*

AQSh madaniyatida esa *congratulations* va *I wish* soʻz va iboralari takror-takror ishlatilish holatlariga guvoh boʻlamiz.

*Congratulations!<sup>26</sup> I wish both of you a very happy married life.*

*Congratulations! I wish you a happy and prosperous married life that lasts forever....*

Rojdestvo bayrami nafaqat amerikaliklar, balki boshqa koʻplab xalqlarda nishonlanadi. Mazkur kunda Rojdestvo qoʻshiqlari kuylanadi. Shulardan eng mashhuri “*Jingle bells*” – Jiringla qoʻngʻiroq qoʻshigʻidir:

*Jingle bells, jingle bells*

*Oh, what fun it is to ride*

*Jingle all the way*

*In a one-horse open sleigh, hey*

Qoʻshiq *jarangla qoʻngʻiroq, hamisha jarangla* kabi maʼnolarni oʻzida jamlab, barchaga xush kayfiyat bagʻishlash uchun kuylanadi. Mazkur qoʻshiqda *Jingle bells, jingle bells* takroriy ifoda qoʻllanilgan.

**Emotsional gaplar** tarkibida ijobiy yoki salbiy maʼnoli soʻz va iboralar, his-tuygʻu ifodalovchi undovlar, munosabat ifodalovchi undalmalar qatnashadi va ular nutqning hissiy jihatini yanada kuchaytirib, ekspressivlikni taʼminlashga xizmat qiladi. Oʻzbekiston madaniyatidagi tabrik nutqiy aktida ham, AQShdagi tabrik nutqiy aktida ham emotsional gaplarda faqat maxsus ijobiy soʻzlar va iboralar ishlatiladi. Chunki, ikkala noqardosh madaniyatda ham tabriklash jarayoni faqatgina bir insonni quvonchli kunida sodir boʻladigan ijobiy hodisa hisoblanadi.

*Vatan himoyachilari kuni* bayrami munosabati aytiladigan sheʼriy parcha emotsiyaga toʻla undov gaplardan iborat:

*Saflarda qad kerib turgan ey askar,*

*Yurakni, bilakni etgil safarbar,*

*Bilgil, mardni koʻrsa, chekinar xatar!*

*Gulday diyoringni asra hamisha!*

<sup>24</sup> <https://uz.denemetr.com/docs/810/index-44128-1.html>

<sup>25</sup> <https://bilimlar.uz/toyda-aytiladigan-tilaklar-va-tabriklar-toplami/>

<sup>26</sup> <https://bridebook.com/uk/article/wedding-speech-examples>

Emotsiyaga boy undov gaplar AQSh madaniyatida ham ko‘plab uchraydi. Mazkur izohga misol sifatida amerikaliklarning diniy bayrami – Shukronalik kunida aytiladigan tabriklardan namunalar keltirildi.

Shukronalik kuni – baham ko‘rish kuni hamdir, ya’ni ayrim fuqarolik guruhlar va xayriya tashkilotlari muhtoj odamlarga, uysiz bechoralarga ovqatlar ulashadilar<sup>27</sup>. Maxsus jamoalar bayram tugaguncha muhtojlarga ovqat tashish bilan shug‘ullanadilar. Shukronalik kunida odamlar bir-birini iliq so‘zlar bilan qutlaydilar:

*Happy Thanksgiving! May you have a blessed and joyous holiday!*

*Happy Thanksgiving to you and your family. May God keep blessing you and fulfill all your wishes and dreams*<sup>28</sup>.

Yuqorida keltirilgan bir qancha tabrik so‘zlarida bir necha emotsiyaga to‘la gaplarni uchratish shubhasiz, hatto ularning ayrimlari undov belgisi bilan tugatilgan his-hayajonli undov gaplardir.

Inglizabon yozuvchilaridan Charlz Dikkens yozgan “A Christmas Carol” asaridagi: “*A Merry Christmas and a Happy New Year to the old man, whatever he is!*” said Scrooge’s nephew. “*He wouldn’t take it from me, but may he have it, nevertheless. Uncle Scrooge!*”<sup>29</sup> jumalari ingliz va amerika madaniyatidagi Rojdestvo bayramidagi nutqlarining bir ko‘rinishi bo‘lib, emotsional gaplarga misol bo‘la oladi.

**Inversiya** – gap bo‘laklarining o‘rin almashinishi yoki gap bo‘laklari joylashish tartibining muayyan maqsad bilan o‘zgarish hodisasi sanaladi. O‘zbekiston va AQSh madaniyatlarida tabrik nutqiy aktini ifodalashda inversiya holatlariga duch kelish kuzatilgan.

Masalan, quyida O‘zbekiston madaniyatida to‘y kuni kelin-kuyovga yaqinlari tomonidan aytiladigan tilaklardan namuna keltirildi:

*Bo‘lgaysiz muazzam hayotning naqshi*<sup>30</sup>. *Nikoh to‘yingiz muborak bo‘lsin.*

Quyidagi she‘r AQSh madaniyatida *Kolumb kuni* bayramida aytiladi:

*In fourteen hundred ninety-two, Columbus sailed the ocean blue...*<sup>31</sup>

Inversiya she‘riyatda ifodalilikni, ohangdorlikni va ta’sirchanlikni ta’minlovchi muhim uslubiy vosita sifatida ko‘p ishlatiladi.

**Gradatsiya** (lot. gradatio) – zinapoya, bosqichma-bosqich kuchaytirish ma’nosini ifodalaydi. U nutq parchalaridan biri ikkinchisining ma’nosini kuchaytirib borishdan iborat uslubiy jarayondir. Holatlarni, tuyg‘u va kechinmalarni qiyoslashda, his-hayajonlar junbushini to‘liq ifodalashda, gradatsiya usulidan foydalaniladi. Adabiyotlarda gradatsiya mohiyatiga ko‘ra: ko‘tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks)ga bo‘linadi. Mohiyatiga ko‘ra tahlil qilib, O‘zbekiston va AQSh madaniyatlaridagi nutqlardan namunalar keltirdik. Quyida o‘zbek madaniyatidagi to‘y boshlovchilarining nutqlaridan bir misol:

<sup>27</sup> Brenner G., Ford M., Sullivan P. Celebrate! Holidays in the USA. Second edition. Office of Language Programs. Bureau of Educational and Cultural Affairs. United States Department of State. Washington, DC 20547. – P.17.

<sup>28</sup> <https://www.wishesmsg.com/thanksgiving-messages-wishes-greetings/>

<sup>29</sup> Charles Dickens. Christmas Carol. – 1843. – P.14.

<sup>30</sup> <https://bilimlar.uz/toyda-aytiladigan-tilaklar-va-tabriklar-toplami/>

<sup>31</sup> <https://www.mamalisa.com/blog/columbus-day-poem-in-1492-columbus-sailed-the-ocean-blue/>

*Assalom, suluv kelin salomidan. Assalom, elning shirin kalomidan. Assalom, ulug' zot ona nomidan. Assalom, o'zbekning issiq nonidan. ...*<sup>32</sup>.

Yuqoridagi parchada nafaqat ko'tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks), balki parallelizm, emotsional gaplar va inversiya ham qo'llanilgan.

Quyida keltirilayotgan matnda esa to'y oxirida ishlatiladigan nutq bo'lganligi ta'siridan pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks) ifoda etilgan:

*Hurmatli mehmonlarimiz, barcha narsaning nihoyasi bo'lgani kabi bugungi fayzli kechamizga ajratilgan vaqtimiz ham nihoyalab bormoqda. Albatta, davramiz so'ngida barchangizning xonadoningizda tinchlik-xotirjamlik, fayz-u baraka arimasligini tilab qolamiz, asosiysi, yurtimiz tinch, osmonimiz musaffo bo'lsin*<sup>33</sup>....

AQSh madaniyatida to'y kuni kelin-kuyov va ularning ota-onalari nutq so'zlaydilar. Quyida kelin-kuyovning nutqi berilgan:

*"Good evening everyone*<sup>34</sup>, *we are [bride's name and groom's name], the newlyweds. We want to take a moment to thank each and every one of you for being here to celebrate this special day with us. Our families, friends, and wedding party have made this day truly unforgettable, and we are so grateful for your love and support..... Cheers to love, laughter, and happily ever after. Cheers to all of us!"*

AQSh to'ylarida kelinning otasining nutqi ham an'anaviy nutqlardan biri hisoblanadi: *"Good evening, everyone*<sup>35</sup>. *Today is a very special day for me, as I stand here to give away my beautiful daughter [bride's name]. She has grown into an amazing young woman, and I am so proud of the person she has become. [Groom's name], I couldn't have asked for a better match for my daughter. You are kind, caring, and loving, and I am honored to welcome you into our family. [Bride's name], [groom's name], I wish you a lifetime of happiness, love, and adventure!"*

Kelinning onasining tilaklari ham to'ydagi an'analardan biridir: *"Good evening everyone. Today holds great significance for me, as I stand before you to celebrate the union of my beloved daughter [bride's name]. Watching her blossom into the remarkable woman she is today fills my heart with immense joy. [Groom's name], from the moment you entered our lives, you've shown remarkable qualities of kindness, compassion, and love. Welcoming you into our family is an honour beyond words. [Bride's name], [groom's name], may your lives be filled with boundless joy, enduring love, and remarkable journeys together!"*<sup>36</sup>

Yuqoridagi AQSh madaniyatiga doir bo'lgan parchalarda ham nafaqat ko'tariluvchi gradatsiya (klimaks) va pasayuvchi gradatsiya (antiklimaks), balki emotsional gaplar, inversiya va antiteza ham qo'llanilgan.

**Antiteza** (lotincha "antithesis" – qarama-qarshi qo'yish, zidlash) – mantiqiy jihatdan bir-biriga qiyoslanadigan fikrlar, tushunchalar, his-tuyg'ular va tasvirlarni qarama-qarshi qo'yish, ularni zidlash san'ati hisoblanadi. Zidlashda bir voqea,

<sup>32</sup> <https://googol.uz/post/yda-aytiladigan-tilaklar1>

<sup>33</sup> <https://mbaza.uz/sherlar-toplami/toyda-aytiladigan-chiroyli-tilaklar/>

<sup>34</sup> <https://bridebook.com/uk/article/wedding-speech-examples>

<sup>35</sup> <https://bridebook.com/uk/article/wedding-speech-examples>

<sup>36</sup> <https://bridebook.com/uk/article/wedding-speech-examples>

hodisa yoki belgi boshqasiga qarama-qarshi qo'yiladi, shu orqali ikkinchisining xususiyati alohida ta'kidlanadi.

Masalan, O'zbekiston madaniyatida to'y kuni quyidagi kabi she'rlar ham aytiladi.

a) *Boshingizni baxt egibdi, g'am egmasin.*

*Biringiz kelin, biringiz kuyov ko'z tegmasin...*

b) *Umringiz bahordek bo'lsin-u,*

*Kuzdek to'kin bo'lsin-u,*

*Hech yomg'iri bo'lmasin.*

*Hech xazoni bo'lmasin.*

*Yozdek issiq bo'lsin-u,*

*Qishdek oppoq bo'lsin-u*

*Saraton bo'lmasin.*

*qahraton bo'lmasin*<sup>37</sup>.

AQSh madaniyatida to'y kuni so'zlangan nutqdan antitezaga misol keltirdik: *And last but not least, we want to express our love for each other*<sup>38</sup>.

**O'xshatish** – ikki narsa yoki voqea-hodisa o'rtasidagi o'xshashlikka asoslanib, ularning biri orqali ikkinchisining belgisini, mohiyatini to'laroq, konkretroq, bo'rttiribroq ifodalash. Adabiyotlarda har qanday o'xshatish munosabati tilda ifodalanar ekan, albatta, to'rt unsur nazarda tutiladi, ya'ni: 1) o'xshatish subyekti; 2) o'xshatish etaloni; 3) o'xshatish asosi; 4) o'xshatishning shakli ko'rsatkichlari<sup>39</sup>. Masalan: *Umringiz bahorday go'zal bo'lsin*. Bunda: *Umringiz* – o'xshatish subyekti; *bahor* – o'xshatish etaloni; *go'zal* – o'xshatish asosi; *-day* – o'xshatishning shakli ko'rsatkichi. Yana bir misol, *May your love be as strong as your desire to win at board games*, gapida *love* – o'xshatish subyekti; – *your desire to win at board games* – o'xshatish etaloni; *strong* – o'xshatish asosi; *as...as* – o'xshatishning shakli ko'rsatkichidir.

Tabrik nutqining turli vositalar orqali ifodalashga sintaktik parallelizm, emotsionallik, inversiya, gradatsiya, antiteza va o'xshatish kabi usullar misol bo'la oladi. Biroq, tahlillarimiz shuni ko'rsatdiki, farqlash xususiyati tabrik nutqida kuzatilmaydi.

Madaniy kod verbal kodlar tarkibiga kiritiladi. Demak, madaniy kod muayyan shaxs yoki millat mentalitetini namoyon qiluvchi borliqdagi barcha moddiy va ma'naviy madaniylashgan va nolisoniy hodisalarni saqlash, shuningdek, olamning lisoniy, madaniy, ma'naviy, diniy va shu kabi turfa manzaralarini ochib beruvchi shartli belgidir. O'zbekiston va AQSh madaniyatlarida tabriklash marosimlari milliy-madaniy kodning yorqin namunasi. Bu ikki madaniyatning tarixi, an'analari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarning o'ziga xos xususiyatlari tabriklarda o'z izlarini qoldiradi. O'zbek madaniyatida tabriklash sharqona qadriyatlar va dinning ta'siri ostida shakllangan bo'lib, hurmat, mehmondo'stlik va iliq munosabatga asoslanadi. AQSh madaniyatida esa tabriklash g'arbiy madaniyatning ta'sirida shakllangan bo'lib, individualizm, shaxsiy erkinlik va ochiq muloqotga asoslanadi.

<sup>37</sup> <https://googol.uz/post/yda-aytiladigan-tilaklar1>

<sup>38</sup> <https://bridebook.com/uk/article/wedding-speech-examples>

<sup>39</sup> [https://tsuull.uz/sites/default/files/saparniyozova\\_1.pdf](https://tsuull.uz/sites/default/files/saparniyozova_1.pdf)

Dissertatsiyaning **“O‘zbekiston va AQShning nikoh to‘yi va bayramlaridagi tabrik nutqiy aktining pragmatik tadqiqi”** nomli uchinchi bobida tabrik nutqiy akti pragmalingsvistikaning o‘rganish obyekti sifatida tahlil qilingan, bundan tashqari, O‘zbekiston va AQShning nikoh to‘yi va bayramlaridagi tabrik nutqiy aktlarida kommunikativ intensioning ifodalanishi, tabrik nutqiy aktlarining konnotativ xususiyati haqida ham ma’lumotlar berilgan.

Pragmatika o‘zbek tilshunosligining alohida yo‘nalishi sifatida shakllanishi xususida so‘z yuritganda, M. Hakimovning bu boradagi qarashlari muhim o‘rin tutadi. U **“O‘zbek tilida matnning pragmatik talqini”** mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida: **“Pragmatika tilshunoslikning nazariy va amaliy yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, insonning ijtimoiy faoliyatini o‘zida mujassamlashtirgan nutqiy jarayonlarni, nutqiy vaziyat ta’siri bilan namoyon bo‘ladigan kommunikativ niyat bilan bog‘liq tushunchalarni o‘rganadi”**, deb yozadi. Biz ham shu fikrga qo‘shilamiz.

Pragmalingsvistika, tilning amaliyoti va uning muloqotdagi samaradorligini o‘rganuvchi ilmiy soha hisoblanadi. Pragmalingsvistik kompetensiya, insonning tilini qanday mavjud muhitda va maqsadlarda samarali qo‘llashini, so‘zni boshqa muloqotlardan solishtirishini, so‘z tuzilishini, ma’noni aniqlashni va tilni muloqotdagi maqsadlarga yo‘naltirishni o‘rganganlikni anglatadi<sup>40</sup>. Pragmatika va pragmalingsvistikaning farqli jihatlari esa pragmatika amaliyoti va kommunikatsiya jarayonlarini o‘rganib, tilning insonlar orasidagi muloqotlar va mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan aspektlariga e’tibor qaratadi. Pragmalingsvistika esa tilning o‘ziga xos tuzilishini va amaliyotini tushuntiradi. Ikki yo‘nalish ham insonlar o‘rtasidagi tilning amaliyoti va ta’siri bo‘yicha foydalanishadi va bir-birini qo‘llab-quvvatlaydi<sup>41</sup>.

O‘zbek madaniyatida tabriklash marosimi til va madaniyatning uzviy bog‘liqligini namoyon etadi. Bu marosimlar orqali biz o‘zaro munosabatlarimizni mustahkamlashdan tashqari o‘z niyatlarimizni ham ifodalaymiz. Tabriklash marosimlarini o‘rganish orqali milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodining noyob namunalari haqida keng tushunchaga ega bo‘lamiz. AQSh madaniyatidagi tabriklash marosimi esa pragmalingsvistika nuqtayi nazaridan, individualizm, ochiq muloqot, hurmat va xushmuomalalik kabi madaniy qadriyatlarning ifodasidir. Tabriklar odatda to‘g‘ridan to‘g‘ri va samimiy bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularni rag‘batlantirish va yutuqlarini qadrlashga xizmat qiladi.

Ta’kidlash lozimki, kommunikativ intensivlik – til birligi yoki nutqiy aktning auditoriyaga ta’sir o‘tkazish qobiliyatini, hissiy va irodaviy jihatdan ta’sirini o‘lchovchi pragmatik tushunchadir. Boshqacha aytganda, bu nutqning **“kuchliligi”** yoki **“ta’sirchanligi”**ni ifodalaydi.

Ovozning ohangi, balandligi, tezligi va pauzalarining qo‘llanilishi kommunikativ intensivlikni kuchaytirishi mumkin. So‘zlarga qo‘yilgan urg‘u

---

<sup>40</sup> Haydaraliyeva E. Pragmatika va pragmalingsvistika: muhim aspektlari va o‘rganilish sohalari// Miasto Przyszłości Kielce 2024 Impact Factor: 9.9 ISSN-L: 2544-980X

<sup>41</sup> Маслова А.Ю. Введение в прагмалингвистику. – М., 2010.

nutqning muhim qismlarini ta'kidlashga va ularga hissiyotni ifodalashga yordam beradi. Bundan tashqari, kommunikativ intensivlik doirasida yana shuni ta'kidlab o'tish lozimki, bir inson boshqasiga: "*Siz bugun yanada ochilib ketibsiz*" nutqiy aktini qo'llasa, bu gap nafaqat tashqi qiyofasiga tavsif berish vazifasini, balki asosan "xushomad" ijtimoiy vazifasini ham bajaradi.

Ma'lumki, so'z semantikasi faqat denotativ ma'no bilan cheklanmaydi, balki unda konnotativ ma'no ham mavjud. Til birliklaridagi denotativ ma'nolar umumtilshunoslikda batafsil o'rganilganligi qayd etilgan. Ta'kidlash lozimki, so'zlar asl lug'aviy ma'nosidan tashqari ko'chma manolarda qo'llanish xususiyatlariga ham ega. Ma'no ko'chishi orqali vujudga keladigan ma'no so'zning hosila ma'nosi hisoblanadi. So'zning hosila ma'nosi matn orqali anglashiladi. Shunday ekan, so'z ma'nosining asl yoki hosila ma'nosi ekanligini lug'aviy birliklarning matniy qo'llanilishi asosida izohlash mumkin. Barcha lug'aviy birliklar singari umumiste'mol so'zlar ham turli ma'nolarda qo'llaniluvchi vositalardandir.

Yuqorida O'zbekiston va AQSh madaniyatining to'y va bayramlardagi nasriy tabrik so'zlari tahlil qilindi. Mazkur bobda, avvalo, har ikkala noqardosh xalqlar madaniyatidagi tabrik nutqiy aktini ifodalovchi she'riy ifodalarga to'xtalib o'tishni lozim topdik. Masalan, o'zbek madaniyatida bayramlarda ham she'riy, ham nasriy tabriklash usullari mavjud. Quyida Navro'z milliy bayramida aytiladigan she'rdan namuna keltirildi:

***Xush ko'rdik, Navro'z<sup>42</sup>***

*Bolalar varragi xayolni olgan*

*Bodom gullaridan quvonadi*

*ko'z.*

*Dillardan mutlaqo g'ubor*

*yo'qolgan.*

*Xush kelding, bahor, xush*

*ko'rdik, Navro'z.*

*Anhorlar oqmoqda suvlarga*

*to'lib,*

*Shukronalik aytdim tinchlikni*

*ko'rib,*

*Mustaqil diyorga bezaklar bo'lib*

*Xush kelding, bahor, xush*

*ko'rdik, Navro'z.*

*Navro'zda ulashing ezgu*

*tilaklar,*

*Axir tilak bilan kamaymaydi*

*so'z.*

*Bahor gullaridek yashnab*

*yuraklar,*

*Xush kelding, bahor, xush*

*ko'rdik, Navro'z.*

"Olmoq" so'zi "bir narsani qo'liga olmoq" ma'noni ifodalasa ham "*Bolalar varragi xayolni olgan*" gapi bahor kelgan-u, bolalar varrak uchirishga chiqqanligini, so'zlovchi bir chekkada ularni tomosha qilayotganligini gapning konnotativ ma'nosi orqali tushunish mumkin. "*Mustaqil diyorga bezaklar bo'lib, xush kelding, bahor, xush ko'rdik, Navro'z*" gapida "bezak" so'zining denotativ ma'nosi "naqsh" so'zining sinonimi bo'lsa-da, mazkur she'rdagi konnotativ ma'nosi "*chiroy*" so'zini ifodalab, "*kelganing diyorimizga yanada chiroy bag'ishladi*" degan ma'noni aks

<sup>42</sup> <https://ilmlar.uz/21-mart-navroz-bayrami-uchun-chiroyli-she'rlar-toplami/>

ettiradi. “Navro‘zda ulashing ezgu tilaklar” gapida “ulashmoq” so‘zi “bermoq” ma’nosini ifodalasa ham, mazkur she’rda “tilamoq” ma’nosida kelgan, deb o‘ylaymiz. “Bahor gullaridek yashnab yuraklar” gapidagi “yashnamoq” so‘zi “chaqnamoq, barq urmoq” ma’nolarini ifodalasa ham, bu she’rda “qattiq quvonish” ma’nosida kelgan.

Misollarni tahlil qilishda yana bir she’riy ifodaga to‘xtalib o‘tdik.

***Kelmoqda Navro‘z<sup>43</sup>***

*Avval yuragingga mo‘ralaydi  
u,  
So‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi  
so‘z.*

*Zaminning ko‘zidan qochadi  
uyqu,*

*Demak, Bahor keldi,*

*Kelmoqda Navro‘z.*

*Qishning ahvoliga boqib hoynahoy,  
Yum-yum yosh to‘kmoqda eriyotgan  
muz.*

*Jilva qilayotir tengsiz bir chiroy...*

“Avval yuragingga mo‘ralaydi u” – aslida yurakka mo‘ralay olarmidi u? Yo‘q, albatta. Bu yerda Navro‘z kelishi bilan issiq kunlar boshlanib, bahor taftidan yuraklar quvonishi nazarda tutilgan. “So‘ngra kurtaklarga o‘rgatadi so‘z” iborasi esa Navro‘z kelishi bilanoq kurtaklar unib chiqib, xuddi bir so‘z aytmoqqa shay turganday ko‘rinadi. Bu misralarda shu ma’no aks etgan. “Zaminning ko‘zidan qochadi uyqu” – qanday qilib zamin uxlay olishi mumkin? Haqiqatan ham, bu yerdagi “uyqu” so‘zi ko‘chma ma’noda, ya’ni *bahor kelishi bilan qorlar erib, maysalar kurtak ocha boshlaydi, qushlarning chug‘urlashi olamni tutadi kabi* ma’nolarda qo‘llanilgan. “Qishning ahvoliga boqib hoynahoy, yum-yum yosh to‘kmoqda eriyotgan muz, jilva qilayotir tengsiz bir chiroy” jummalari muzlar erib suv holiga kelganidan, hamma yoqda o‘zgacha bir go‘zallik hukm sura boshlayotganidan dalolat beradi.

O‘zbek madaniyatida konnotativ ma’no, so‘zlarning asosiy ma’nosiga qo‘shimcha bo‘lib, madaniy qadriyatlar, an’analar, urf-odatlar va his-tuyg‘ularni aks ettiradi. U so‘zlarning tanaffusini, intonatsiyasini, so‘zlarning birikishini va umuman so‘zlovchining nutqini anglashda muhim rol o‘ynaydi.

AQSh madaniyatida ham har bir bayramda aytiladigan o‘ziga xos she’rlar mavjud. Mazkur madaniyatda ham tabriklar ham she’riy, ham nasriy usullarda ifodalanadi. Quyidagi she’r “Our flag<sup>44</sup>”, ya’ni “Bayrog‘imiz” deb nomlanib, Patricia A Fleming tomonidan yozilgan.

*She waves for my attention,  
So free upon the breeze.  
The sun reflects her stars and  
stripes,  
As proud as she can be.  
She tells a tale of people lost,*

*To bring us here today.  
She reminds me of the brave who  
fought  
To keep our country strong  
And shouts at me of victories  
To right egregious wrongs.*

<sup>43</sup> <https://ilmlar.uz/21-mart-navroz-bayrami-uchun-chiroyli-sheerlar-toplami/>

<sup>44</sup> <https://www.familyfriendpoems.com/poem/our-flag-2>

*Who came to find their way  
And carried on through every loss,*

Bu she'r go'yoki bayroq gapirayotgandek, odamlarga qarab qo'lini silkitayotgandek, quyosh mag'rurona bayroqning yulduz va chiziqlarini ko'rsatayotgandek tasvirlangan. "*She tells a tale of people lost*", ya'ni "yo'qolgan odamlar haqida hikoya qiladi" deyilgan, agar buni denotativ ma'no deb olsak, jonsiz narsa gapira olmasligi tabiiy. Demak, bu yerda ko'chma ma'no, ya'ni shu bayroq uchun jonini bergan har bir jonkuyarning izi borligi haqida gapirilgan. "*And shouts at me of victories*", "*Va menga g'alabalar haqida baqiradi*" degan jumlaning tahliliga to'xtalar ekanmiz, bunda ham bayroq baqirmasligini hamma yaxshi biladi, bu jumla – bayroq bir qancha g'alabalar nishonasi ekanligidan dalolat beradi.

AQSh madaniyatida ham O'zbekiston madaniyatidagidek, tabrik nutqiy aktiga konnotativ xususiyat, ko'pincha, tinglovchiga nisbatan g'amxo'rlik, hurmat, ijobiylik va samimiyatni aks ettiradi. Bu tabriklarning faqat so'zlarning o'ziga emas, balki ularning yashirin ma'nosiga bo'lgan ahamiyatini ta'kidlaydi.

Tinglovchiga nisbatan g'amxo'rlik, hurmat, ijobiylik va samimiyatni aks ettiruvchi tabrik nutqiy aktining ifodasini bir necha asarlarda ham uchratish mumkin: F. Scott Fitzgerald tomonidan yozilgan "The Great Gatsby"<sup>45</sup> asaridagi "*I hope you'll be very happy!*" jumlasini, Frank Capra tomonidan yozilgan "It's a Wonderful Life"<sup>46</sup> asaridagi "*Merry Christmas, buddy! Wishing you all the best in life!*" iborasi, Mario Puzo tomonidan yozilgan "The Godfather"<sup>47</sup> asaridagi "*May peace, luck, and success be with you!*" iboralari, Charlz Dikens tomonidan yozilgan "A Christmas Carol"<sup>48</sup> asaridagi "*God bless us, every one!*" jumlasini, Tennessee Williams tomonidan yozilgan "A Streetcar Named Desire"<sup>49</sup> asaridagi "*I wish you joy. May your days be filled with sunshine*" iboralari shular jumlasidandir.

Konnotativ nutqiy akt – so'zlarning asosiy ma'nosiga qo'shimcha bo'lgan yashirin ma'nolar, his-tuyg'ular, madaniy va ijtimoiy kontekstlarni ifodalaydigan nutq shaklidir. Bu so'zlarning intonatsiyasini, so'zlarning birikishini va umuman so'zlovchining nutqini anglashda muhim rol o'ynaydi. Konnotativ nutqiy aktda so'zlarning asosiy ma'nosiga qo'shimcha bo'lib, madaniy qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va his-tuyg'ularni aks ettiradi.

## XULOSA

1. Antropotsentrik paradigmalarning rivojlanishi bilan birga, insonning roli, uning nutqi va idrokidagi o'rni aniq belgilandi va chuqur tahlil qilindi. Bu yo'nalishda bir qancha alohida sohalar ajralib chiqdi va ular o'z mustaqil tadqiqot obyektlariga ega bo'ldi. Jahon tilshunosligida boshlangan ushbu tadqiqotlar XXI asrdan boshlab o'zbek tilshunosligiga ham kirib keldi va o'zbek tilidagi matnlar antropotsentrik yondoshuvlar asosida o'rganilib, tahlil qilindi.

<sup>45</sup> <https://www.planetebook.com/free-ebooks/the-great-gatsby.pdf>

<sup>46</sup> <https://nnkomissarova.medium.com/it-s-a-wonderful-life-30c68507202d>

<sup>47</sup> <http://altair.pw/pub/lib/Mario%20Puzo-The%20Godfather.pdf>

<sup>48</sup> [https://www.ibiblio.org/ebooks/Dickens/Carol/Dickens\\_Carol.pdf](https://www.ibiblio.org/ebooks/Dickens/Carol/Dickens_Carol.pdf)

<sup>49</sup> <http://jhampton.pbworks.com/w/file/53101025/Streetcar.pdf>



2. Insonlar o'rtasidagi turli ijtimoiy munosabatlarda tabriklar muayyan ko'rinishlarda paydo bo'ladi. Har bir holatda nutq qaratilgan shaxsga hurmat ko'rsatish, xushmuomalalik va odob-axloq mezonlariga rioya qilish tabrikning asosiy kommunikativ maqsadi sifatida namoyon bo'ladi. Tabrik nutqining amalga oshirilishida, nutq qaratilgan shaxsning erishgan muvaffaqiyatlariga e'tibor qaratish, muloqot jarayonida o'zining emotsional holatini, ijobiy munosabatini aks ettirish, suhbatdoshning quvonchiga sherik ekanligini ifodalash, o'zining tanlagan til birliklari yordamida unda yaxshi kayfiyat uyg'otish va hurmat-ehtiromini bildirish orqali adresatning emotsional holatini shakllantirish ko'zda tutiladi. Bunda, tabrik nutqi aktining asosiy vazifasi ta'sirchanlikni ta'minlash ekanligi aniq ko'rinadi.

3. Tadqiqot ishimizda ko'plab tilshunos olimlarning madaniyat haqidagi nazariy qarashlarini tahlil qilib, madaniyat haqidagi ishchi ta'rifni yaratildi: Madaniyat – insonlarning turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, o'sha xalqning avloddan avlodga meros bo'lib o'tib kelayotgan urf-odatlar, tarixi, musiqa va san'at, qadriyatlar, turli xil udumlar, ma'naviyat va ma'rifat harakatlarini o'zida aks ettiruvchi jarayondir.

4. Tili, madaniyati, tarixi, dini bir-biriga yaqin bo'lmagan ingliz va o'zbek xalqlari tilida keng qo'llanib kelayotgan tavsifiy, antropologik, pragmatik, funksional, germeneytik, falsafiy, konseptual, kommunikativ, informativ, simvolik, tipologik shakllanish qonuniyatlari, sintaktik tuzilishi bilan bog'liq ma'lumotlarni o'rganish tilshunoslik fanining muhim obyekti sanaladi va uni alohida tadqiq etish maqsadga muvofiq.

Madaniy nisbiylik – e'tiqodlar madaniyat kontekstida ta'sir qiladi va eng yaxshi tushuniladi, degan g'oyadir. Bu antropologlar va ijtimoiy olimlar tomonidan boshqa madaniyatlarni o'zlarining madaniyatlari bilan solishtirganda, hukm qilishning tabiiy tendensiyasini tan olish va boshqa madaniyatlar haqida ma'lumotni to'g'ri to'plash va tahlil qilish uchun ishlatiladigan nazariya va vositadir.

5. Ingliz va o'zbek lingvomadaniyatida tabrik nutqiy aktlarining qo'llanish xususiyatlari ularning madaniy an'analari, qiymatlari va o'zaro munosabatlarini yuksaltirish maqsadida belgilangan. Har bir madaniyat o'zining tabrik uslublari orqali insoniyatning umumbashariy aloqalariga intilmoqda. O'zbekcha va inglizcha tabriklar bir-biriga o'xshashliklar va farqlarni ko'rsatishi bilan birga, har birining o'ziga xos go'zalligi va o'ziga xos ma'nosi bor. Bu esa global muloqot muhitida madaniyatlararo idrokni rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

6. Ikkala madaniyatda ham tabrik so'zlarining lingvistik xususiyatlarini tonallik, so'z tanlovi va performativ funksiyalar jihatidan tahlil qildik. O'zbek tilida tabrik so'zlari, ko'pincha, ijobiy va samimiy ohangda aytiladi. Ingliz tilida esa tabriklar ko'pincha neytral ohangda aytiladi. O'zbek tilida tabrik so'zlari ko'pincha she'riy so'zlar, metaforalar va maqtoqli iboralar bilan ifodalanadi. Ingliz tilida esa tabriklar, odatda, sodda va qisqa so'zlar bilan ifodalanadi. Tabrik so'zlari, odamlar o'rtasidagi munosabatlarni o'zgartirishi yoki muayyan holatlarni yaratishga yordam beruvchi performativ funksiyalarni ham bajaradi. Masalan, "Tug'ilgan kuningiz

bilan!” iborasi tinglovchida quvonchli his-tuyg‘ularni uyg‘otishga va bayram muhitini yaratishga xizmat qiladi.

7. O‘zbekiston va AQSh madaniyatlaridagi tabrik nutqiy aktini parallellik: takroriy so‘zlarning ishlatilishi, emotsional gap: his-tuyg‘ularni kuchli ifodalovchi gaplar, inversiya: gap bo‘laklarining tartibini o‘zgartirish orqali ta’sirni oshirish, gradatsiya: bir-biriga bog‘liq tushunchalarni oshish yoki kamayish darajasida joylashtirish, antiteza: qarama-qarshi tushunchalarni bir-biriga qarama-qarshi qo‘yish, o‘xshatish: bir narsani boshqa narsaga o‘xshatish kabi ko‘rinishlarda qo‘llanilishi kuzatildi.

8. O‘zbekiston va AQSh madaniyatlarida tabriklash marosimlari milliy-madaniy kodning yorqin namunasi. Bu ikki madaniyatning tarixi, an‘analari, qadriyatlari va ijtimoiy munosabatlarning o‘ziga xos xususiyatlari tabriklarda o‘z izlarini qoldiradi. O‘zbek madaniyatida tabriklash sharqona qadriyatlar va dinning ta’siri ostida shakllangan bo‘lib, hurmat, mehmondo‘stlik va samimiy munosabatlarga asoslanadi. AQSh madaniyatida esa tabriklash g‘arbiy madaniyatning ta’sirida shakllangan bo‘lib, individualizm, shaxsiy erkinlik va ochiq muloqotga asoslanadi.

9. O‘zbek madaniyatida tabriklash marosimi til va madaniyatning bir-biriga chambarchas bog‘liqligidan dalolat beradi. Bu marosimlar orqali biz kommunikativ niyatlarni ifodalashimizdan tashqari, o‘zaro munosabatlarni ham mustahkamlaymiz. Tabriklash marosimlarini o‘rganish orqali biz milliy qadriyatlar, urf-odatlar, xalq og‘zaki ijodining noyob namunalari va til haqida chuqurroq ma’lumotga ega bo‘lamiz. AQSh madaniyatidagi tabriklash marosimi, pragmatik nazaridan, individualizm, ochiq muloqot, hurmat va xushmuomalalik kabi madaniy qadriyatlarning aks etishi hisoblanadi. Tabriklar odatda to‘g‘ridan to‘g‘ri va samimiy bo‘lib, shaxslar o‘rtasidagi munosabatlarni mustahkamlash, ularni rag‘batlantirish va yutuqlarini qadrlashga xizmat qiladi.

10. Tilning barcha birliklari yashirin ma’nolarga ega, ya’ni konnotativ ma’noga ega. Tilshunoslar bu sohani o‘rganishga kirishgan bo‘lsalar-da, bu sohadagi tadqiqotlarni davom ettirish bugungi kunda juda muhim. So‘zning talaffuzidagi ozgina farqlar ham turli yashirin ma’nolarni hosil qilishi mumkin. Bu ma’nolar so‘zning asosiy ma’nosiga qo‘shimcha bo‘lib, so‘zlovchi va tinglovchining his-tuyg‘ularini, masalan, hayajon, xursandchilik, xafa bo‘lish, rozilik, hayrat, iltimos, hayrat, kinoya, istak-tilak, ta’sirlanishni aks ettiradi. Nutq tovushlarida ifodalangan yashirin ma’nolar so‘zlarning bir-biriga bog‘lanishida va umumiy ma’no hosil qilishda muhim rol o‘ynaydi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 ПО ПРИСУЖДЕНИЮ  
УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ УЗБЕКСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ  
УНИВЕРСИТЕТЕ МИРОВЫХ ЯЗЫКОВ**

---

**УЗБЕКСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ МИРОВЫХ  
ЯЗЫКОВ**

**МАШАРИПОВА ЛЕНИЗА АХМЕДЖАНОВНА**

**ЯЗЫК В МЕЖКУЛЬТУРНОЙ КОММУНИКАЦИИ  
И ЕГО АНТРОПОЦЕНТРИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ**

**(на примере поздравительных речевых актов на свадебных церемониях  
и праздниках Узбекистана и США)**

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное  
языкознание и переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ**

**диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

**Ташкент – 2025**

**Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инновации Республики Узбекистан за номером B2024.2.PhD/Fil3524**

Диссертация выполнена в Узбекском государственном университете мировых языков.

Автореферат диссертации размещён на трёх языках (узбекском, русском, английском (резюме)) на веб-странице Научного совета ([www.uzswlu.uz](http://www.uzswlu.uz)) и на информационно-образовательном портале «Ziyonet» ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)).

**Научный руководитель:** **Ирискулов Мухамадавас Турсунович**  
кандидат филологических наук, профессор.

**Официальные оппоненты:** **Хайруллаев Хуршиджон Зайниевич**  
доктор филологических наук, профессор.

**Агзамова Дилдора Бахадиржановна**  
кандидат филологических наук, доцент.

**Ведущая организация:** **Государственный университет  
Каракалпакстана имени Бердака**

Защита диссертации состоится “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 г. в \_\_\_ часов на заседании Научного совета DSc.03/30.12.2019.Fil.27.01 по присуждению ученых степеней при Узбекском государственном университете мировых языков. (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Малой кольцевой дороги, дом 21-А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92, e-mail: [uzswlu\\_info@mail.ru](mailto:uzswlu_info@mail.ru))

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Узбекского государственного университета мировых языков (зарегистрирована за номером \_\_\_\_). (Адрес: 100138, город Ташкент, Учтепинский район, улица Малой кольцевой дороги, дом 21-А. Тел.: (99871) 230-12-91, факс: (99871) 230-12-92)

Автореферат Диссертации разослан “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года.

(протокол реестра рассылки №\_\_\_ от “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 2025 года.

**И.М. Тухтасинов**

Председатель Научного совета по присуждению  
учёных степеней, д.п.н., профессор

**Х.Б. Самигова**

Учёный секретарь Научного совета по присуждению  
учёных степеней, д.ф.н., профессор

**Ж.А. Якубов**

Председатель Научного семинара при научном совете по  
присуждению учёных степеней, д.ф.н., профессор

## ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

**Актуальность и востребованность темы диссертации.** На этапе развития современного глобализованного международного сообщества мирового языкознания проблема языка и его особенностей в межкультурном общении, создания словаря лингвокультурных единиц, его социальных особенностей становится причиной острых дискуссий среди лингвистов. Изучение отношений языка и культуры, лингвокультурологию, проведение лингвопрагматических исследований имеют большое значение для дальнейшего развития современного языкознания. Ведь процесс научных исследований, проводящихся и проводимых во всех областях, осуществляется путем донесения их до подрастающего поколения с помощью языковых средств. А это является одна из важных задач, стоящих перед наукой.

В мировой лингвистике в современном глобализованном международном сообществе серьезное внимание уделяется вопросу «межкультурной коммуникации» и подготовке специалистов по иностранным языкам. Причина этого в том, что культура, традиции, ценности, образ жизни нации неоднократно подвергались испытаниям и принимались нацией в различных жизненных процессах, приобретенных этой нацией на протяжении веков, и соблюдаются в процессах повседневной жизни. В межкультурной коммуникации язык и его антропоцентрический анализ изучаются уже давно, некоторые проблемы решены, а некоторые до сих пор остаются проблемными. Учитывая, что исследования по анализу поздравительных речевых актов во время свадебных церемоний и праздников в культурах Узбекистана и США служат выявлению национальных языковых особенностей этих народов и их уникальных универсальных аспектов, и в этом проявляется актуальность данного исследования.

Одним из важных условий национального роста является развитие государственного языка, изучение его в сопоставлении с другими языками, а также проявление уникальных особенностей узбекского языка. В связи с этим в нашей республике ведется обширная работа в области антропоцентризма и прагмалингвистики. Президент Республики Узбекистан в своем приветствии участникам международной конференции «Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы» подчеркнул: “Мы в Узбекистане, следуя глубоко продуманному принципу “Дружба литератур – дружба народов”, уделяем большое внимание переводу и изданию на узбекском языке шедевров мировой классической и современной литературы”<sup>50</sup>. Поскольку в современном международном сообществе английский является ведущим международным языком, одним из основных требований является то, что каждый человек, говорящий на этом

---

<sup>50</sup> Приветствии Ш.Мирзиёева участникам международной конференции “Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы”. 7 августа 2018 года <https://president.uz/uz/lists/view/1926>.

языке, должен учитывать не только свой язык, образ жизни, ценности и культуру, но и то, с кем и с представителем какой национальности он общается, он должен четко донести до собеседника свое мнение, опираясь на обычаи, свойственные собеседнику, если не знает о них, то на нормы общения, практикуемые в международном сообществе.

Данное исследование в определенной мере служит для реализации задач, указанных в Указах Президента Республики Узбекистан № УП-5847 “Об утверждении Концепции развития системы высшего образования Республики Узбекистан до 2030 года” от 8 октября 2019 года, № УП-60 “О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 — 2026 годы” от 28 января 2022 года, Постановлениях № ПП-3775-son “О дополнительных мерах по повышению качества образования в высших образовательных учреждениях и обеспечению их активного участия в осуществляемых в стране широкомасштабных реформах” от 5 июня 2018 года, № ПП-5117 “О мерах по поднятию на качественно новый уровень деятельности по популяризации изучения иностранных языков в Республике Узбекистан” от 19 мая 2021 года и в других нормативно-правовых документах по данной сфере деятельности.

**Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики.** Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации по социальному, правовому, экономическому, культурному, духовно-просветительскому развитию информационного общества и демократического государства».

**Степень изученности проблемы.** В научных исследованиях XXI века преобладает человеческий фактор, области языкознания, в частности, эффективность лингвокультурологических и прагмалингвистических исследований, а также при создании их теоретических основ развиваются важные научно-теоретические представления об антропоцентрической парадигме, языковых единицах с национально-культурными элементами и их характеристиках.

В мировой лингвистике вопросы соотношения языка и культуры научно изучили такие лингвисты, как А.А. Потебня, Г.Г. Сливкин, Н. Алефиренко, Н.А. Маслова, В.А. Звегинцев, Б. Питерсон, А. Крёбер и К. Клюкхон, Н. Чомский, Э. Сапир, Б.Л. Уорф<sup>51</sup>.

---

<sup>51</sup> Потебня А.А. Символ и миф в народной культуре. – М., 2000 (2007).; Slivkin G.G. [The Linguistic-Cultural Conceptology as a Trend of Contemporary Russian Linguistics](#). – 2016.; Alefirenko N. Linguocultural nature of mentality. Язык. Словесность. Культура, 2011.

Маслова В. Лингвокультурология: учебное пособие. – М., 2001.; Звегинцев В.А. Очерки по общему языкознанию. – М., 1962. – С.178- 179.; Peterson B. Cultural Intelligence. – Intercultural Press, 2004. – P.16.; Kroeber A., Kluckhohn C. Culture. A Critical Review of Concepts and Definitions, 1952. – P.25.

Chomsky N. Syntactic Structures. – 1957. – P.26.; Sapir E. Mandelbaum David (ed.). Selected writings in language, culture and personality. – University of California Press, 2001. – Pp.85-104.; Benjamin L.W. Language, Thought, and Reality, 1956. – P.89.

